

# Uzbekistan Airways'dan Bakuga yanada arzonroq aviachiptalar

**2022 28 Dekabr**

Uzbekistan Airways Toshkent – Baku – Toshkent yoʻnalishi boʻyicha aviachiptalar narxlari arzonlashganini maʼlum qiladi. Bugungi kunda Uzbekistan Airways Toshkent – Baku – Toshkent yoʻnalishida haftaning seshanba va payshanba kunlari parvozlarni amalga oshiradi. Toshkent – Baku yoʻnalishida aviachiptalar narxi 1 891 764 soʻmdan, Toshkent – Baku – Toshkent yoʻnalishida esa 3 698 287 soʻmdan boshlanadi.

Aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy saytidan [www.uzairways.com](http://www.uzairways.com) 3% chegirma bilan, Uzbekistan Airways Sales filialidan yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilib olish mumkin.

Aviachiptalarning narxlari 2022-yilning 28-dekabr holatiga koʻra amal qiladi.